Abstract: At present, numerous practical initiatives to develop students' scientific thinking are being implemented in higher pedagogical institutions. In line with the search for new approaches to teacher education that meet contemporary developmental demands, instruction grounded in a scientific approach is becoming a priority in university practice. Scientific thinking is a subject of inquiry across many fields—including psychology, philosophy, logic, the social sciences, physiology, cybernetics, and biology—and has been widely and systematically examined. The intellectual potential of any country is shaped by its education system, which is the principal driver of sustainable, progressive national development. The quality of citizens' education determines the prospects for economic growth and the standard of living, while technology and modern markets make higher education essential. According to global practice, to bring innovative products to the world market and sustain their effectiveness over time in highly competitive conditions, commercial enterprises need to employ the design-thinking method.

Key words: education, scientific research, scientific thinking, pedagogy, innovation, competence, student, knowledge.

Аннотация: В настоящее время в высших педагогических учебных заведениях реализуется множество практических мероприятий по развитию научного мышления студентов. В связи с поиском новых подходов к педагогическому образованию, основанных на требованиях времени и развития, в деятельности вузов приоритет получает обучение, основанное на научном подходе. Научное мышление является объектом исследования многих дисциплин: психологии, философии, логики, социальных наук, физиологии, кибернетики и биологии; оно широко и систематически изучается с разных сторон. Интеллектуальный потенциал любой страны формируется её системой образования, которая является главным и незаменимым фактором устойчивого и поступательного развития государства. Качество образования граждан определяет возможности экономического развития и уровень жизни общества, а технологии и современный рынок требуют высшего образования. Согласно мировому опыту, для вывода инновационной продукции на глобальный рынок и сохранения её эффективности в условиях высокой конкуренции коммерческим предприятиям необходимо применять метод дизайн-мышления.

Ключевые слова: образование, научное исследование, научное мышление, педагогика, инновация, компетенция, студент, знание.

KIRISH

Hozirgi kunda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantirishga doir ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Pedagogik ta'limda zamon va rivojlanish talablari asosida yangicha yondashuvlar usullarini izlash bilan bog'liq holda oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ilmiy yondashuv vositasida bilim berish usuli ustuvor bo'lmoqda. Bu usulning amaldagi namunasi sifatida kafedralar qoshida ilmiy



tadqiqotlarga asoslangan holda tashkil etilgan “Ilmiy-amaliy muzey”, “Ilmiy adabiyotlar kutubxonasi”, “Seleksion tajribalar eksperimental maydonlari”, “Mintaqaviy tadqiqot markazi”, “Pedagogik innovatsiya markazi”, “Pedagogik ilmiy tadqiqotlar markazi”, “Kichik maktablar”, “Kovorking markazi” kabilarning tashkil etilganligini misol qilib keltirish mumkin. Shunday markazlarning tashkil etilishi talabalarning ilmiy tadqiqotlarga asoslangan ilmiy izlanishlarini yo'lga qo'yish, qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirishning ma'muriy-tashkiliy tomonlariga asos bo'ladi.

Talabalarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish fanlararo integratsiya samaradorligini ta'minlash orqali amalga oshadi. Fanlararo integratsiya samarali bo'lishi uchun uch tamoyilga asoslanishi zarur: kontekstualizatsiya, konseptualizatsiya va muammoga asoslangan ta'lim. Ya'ni, talabalar biron-bir loyiha ustida ishlash, real muammoni tadqiq qilish, unga yechim topish, “ilmiy mahsulot” yaratish jarayonida turli fanlardan olgan bilimlarini ma'lum bir kontekstga tadbiiq qiladilar. Buni kontekstualizatsiya deb yuritiladi. Ilmiy bilimlar, nazariyalar va hodisalar o'rtasidagi bog'liqliklarni ko'rishni o'rganish jarayoni esa konseptualizatsiya deb yuritiladi. Tabiiyki, bunday loyihalarni bir yoki ikki dars doirasida bajarish imkonsiz, ular uzoqroq muddatga mo'ljallangan bo'ladi va guruh (jamo) bo'lib ishlashni talab qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-128-sonli qarori¹da ilmiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bir qator vazifalar belgilandi:

- ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni, o'qitishning samarali shakl va usullarini, ta'lim sifatini baholash va monitoring qilishning zamonaviy tizimlarini joriy qilish;
- ta'lim tashkilotlarida o'qitish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy talablar va ilg'or xorijiy tajriba asosida yangi darsliklar va o'quv-metodik majmualarni nashr qilish, tajriba-sinovdan o'tkazish va eksperimentizatsiya qilishni tashkil etish;
- ta'lim tashkilotlaridagi o'quv-tarbiya jarayonlari va kadrlarni tayyorlash sifatini monitoring qilishda, ta'lim oluvchilarning bilimi ta'lim standartlari va talablariga muvofiqligini tahlil qilishda ishtirok etish, O'zbekiston Respublikasida ta'lim sifati sohasida xalqaro dasturlar va tadqiqotlar o'tkazilishini tashkil etish;
- ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan tahliliy va amaliy tadqiqotlar o'tkazish, ta'lim jarayonida jahon ilm-fani va texnologiyalari yutuqlaridan keng foydalanish bo'yicha ilmiy ishlanmalar va tavsiyalar tayyorlash.

Ushbu qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda talabalar ilmiy-tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish borasidagi ishlarni amalga oshirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Pedagogik kadrlarning yuksak kasbiy tayyorgarligi ko'p jihatdan oliy ta'lim muassasalarida shakllantirilgan salohiyat, uning ta'limiy ehtiyojlarini qondirish va kasbiy tayyorgarlik darajasiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimini tubdan qayta ko'rib chiqish, professional bilimlarni egallash uchun imkoniyatlarni kengaytirish, yangi sharoitlarda va zamonaviy texnologiyalarda ishlashga qodir, yuksak ilmiy tafakkurga ega mutaxassislarni tayyorlash zarurati yuzaga keldi.

Ilmiy tafakkur kognitiv qobiliyat sifatida quyidagi tarkibiy qismlarga ega:

- muammoni qo'yishni shakllantirish va rivojlantirish;
- ilmiy savol qo'yishni shakllantirish;
- gipotezalar shakllantirish;
- tadqiqot materiallarini (artefaktlarni) shakllantirish va moslashtirish;
- ma'lumotlar/dalillarni yaratish;
- ma'lumotlar/dalillarni baholash;
- xulosalar shakllantirish;
- natijalarning tanqidiy tasnifi va yetkazilishini o'z ichiga oladi.

Talabalarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish fanlararo integratsiya samaradorligini ta'minlash orqali amalga oshadi. Integratsiya samarali bo'lishi uchun kontekstualizatsiya, konseptualizatsiya va muammoga asoslangan ta'lim tamoyillariga asoslanishi kerak.

“Ilmiy tafakkur” tushunchasi tahlilini amalga oshirish avvalo “tafakkur” tushunchasini o'rganishni taqozo etadi. Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli hisoblanib, obyektiv voqelikning inson ongida aks etish jarayonini tavsiflaydi. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish vositasi, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sifatida ko'riladi. Tafakkur sezgi, idrok va tasavvurga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayoni hisoblanadi.

¹ <https://lex.uz/docs/-6438903>

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlarda tafakkur voqelikdagi narsa va hodisalarni, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni fikran umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirishi sifatida tavsif etiladi. Voqelik tafakkurda idrok va tasavvurgagina nisbatan chuqurroq va to'laroq aks etadi. Inson sezgi va idrok vositasi bilan bilish imkoniga ega bo'lmagan narsa va hodisalarning xususiyatlarini, ularning o'zaro bog'liqligi va munosabatlarini tafakkur vositasi orqali bilib oladi. Tafakkur inson miyasining alohida funksiyasi sifatida uning nerv-fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal segmentlarining o'zaro munosabatidan iborat bo'ladi. Tafakkur qilish orqali insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz vujudga keladi va ular shaxsning ongida tushuncha, qaror, xulosa shaklida ifodalanadi.

Talabalarining ilmiy tafakkurini rivojlantirish mavzusini tadqiq etishda bir qator olimlar izlanishlar olib borgan. Hususan, insonni aqliy rivojlantirish masalasi kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida mutafakkirlar, faylasuflar, tarixchilar, psixolog va pedagog olimlarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Tafakkurning rivojlanishiga keng imkoniyatlar ochib berish yo'l-yo'riqlarini R. U. Mamaraimova quyidagicha ko'rsatgan:

- muammoning yuzaga kelishi va fikriy vazifaning shakllanishi;
- vazifaga javobni izlash va uni topish;
- topilgan javobni sub'yektiv yangilik sifatida idrok etish;
- erishilgan javobning to'g'riligini isbotlash, uni boshqa kishiga asoslab tushuntirish.

Talabalarda ilmiy tafakkurni rivojlantirish faqat ularning ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga yo'naltirish uchun emas, balki kasbiy-pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish uchun ham zaruriy vazifadir. Oliy ta'lim muassasasini yakunlagan talabalarining ilk mehnat faoliyatini pedagogik bilan boshlashi va pedagogik faoliyatda kuzatgan muammo yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishi tayyorlashi eng samarali usul hisoblanadi. Yechimi noma'lum muammoni hal etish, o'rganilayotgan obyektga oid qonuniyatlarni amaliyotda qo'llash uchun kashf etish, yangi bilimlarni ishlab chiqish kasbiy-pedagogik faoliyat uchun muhimdir.

Talabalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb qilish bir necha bosqichda sodir bo'ladi. Dastlab, talabalar ilmiy tadqiqot elementlari bilan tanishadilar va fundamental fanlar asoslarini o'rganish bo'yicha mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Ushbu bosqichdagi ishning asosiy shakli – har qanday fanning dasturiy materiali doirasidagi o'quv va tadqiqot ishlarini olib borishdir. Talabalarining o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlarining maqsadi – turli manbalardan yetishmayotgan bilimlarni mustaqil olishlari uchun sharoit yaratish, amaliy muammolarni hal qilishda ulardan foydalanishni o'rganish, turli guruhlarda ishlash orqali muloqot ko'nikmalarini egallash, tadqiqot ko'nikmalarini (muammolarni aniqlash, ma'lumot to'plash, kuzatish, eksperiment o'tkazish, tahlil qilish, gipoteza qurish, umumlashtirish), tizimli fikrlashni rivojlantirishdan iborat.

Keyingi bosqich – maxsus fanlarni o'rganish, talabalarni bitiruvchi kafedra faoliyatining ilmiy yo'nalishlari bilan tanishtirishdir. Bu bosqichda talabalar bevosita kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan olib boriladigan qo'shma ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilinadi. Talabalarda ilmiy tafakkurning rivojlanishida ilmiy tadqiqot ishlarida ishtirok etish imkoniyati muhim pedagogik shart-sharoit hisoblanadi. Talabalarining ta'lim yo'nalishiga mos ravishda ilmiy tadqiqot faoliyatiga jalb etish doimo samarali natija bergan.

N. Shermuxamedova ilmiy tadqiqot faoliyatini quyidagi turlarga bo'lib tahlil etadi:

1. **Individual ilmiy tadqiqot.** Yakka tartibda amalga oshiriladigan va kashfiyot yoki innovatsion ixtiro natijalari uchun shaxsiy javobgarlikni ko'zda tutadi. Bu turda olimning shaxsiy qiziqishlari doirasida maqsadli faoliyat amalga oshiriladi. Bunda ilmiy daraja va tadqiqotchining qiziqishlari doirasi muhim omil bo'ladi.
2. **Hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot.** Ilmiy buyurtma asosidagi maqsadli faoliyat jamoaviy shaklda olib boriladi. Hamkorlikdagi ilmiy tadqiqotda maqsad va uni amalga oshirish yo'llari birgalikdagi reja asosida belgilanadi. Reja va hisobotlarda jamoaning ishtiroki aniq ifodalanishi lozim. Hozirgi kunda dolzarb bo'lgan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqot dasturlari ham jamoaviy ijod mahsuli hisoblanadi.
3. **Texnikaviy ilmiy tadqiqot.** Voqelikni amaliy (texnologik) o'zgartirish bilan bog'liq bo'lib, texnik ijod psixologik jihatdan ilmiy ijodga yaqin, ammo ayrim farqlarga ega. Texnikaviy tadqiqot tafakkurning ko'rgazmali-obrazli va ta'sirchan komponentlariga tayanadi. Tadqiqot jarayoni ixtirochilik va loyihalashtirishda namoyon bo'lib, amaliyot talablariga javob beradigan mexanizmlar, konstruksiyalar yaratishga olib keladi. Shu ma'noda, texnikaviy tadqiqot ratsional va utilitar xususiyatga ega.
4. **Badiiy ijod bilan bog'liq ilmiy tadqiqot.** Voqelikni estetik o'zlashtirish va odamlarning estetik ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liqdir. Bu turda asosan ko'rgazmali-obrazli tafakkur ustuvor bo'lib, emotsional hodisalar asosiy komponent hisoblanadi. Badiiy ijod ijtimoiy ongning maxsus shakli – san'atning barcha turlarida namoyon bo'ladi.



5. Pedagogik ilmiy tadqiqot. Pedagogik jarayonda yangilik izlash va topishdan iborat. Uning birinchi bosqichi – o'zi uchun yangilikni kashf etish, pedagogik vazifalarni hal etishning nostandart vositalarini ishlab chiqish. Ikkinchi bosqich – boshqalar uchun ham yangilikni kashf etish, ya'ni novatorlikdir. Dastlabki tadqiqot faoliyatida tadqiqotchida ko'tarinki kayfiyat, o'z tadqiqotlaridan g'ururlanish va istiqbol belgilash kuzatiladi.

A. Choriyev "Inson falsafasi" asarida inson muammosini o'rganuvchi tadqiqotchilarning sa'y-harakatlari ikki yirik qutbga bo'ysunishi, birinchi qutb – insonning tabiiy-ijtimoiy mohiyatini o'rganuvchi fanlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlashi zarurligini ta'kidlab, sotsiologumanitar va tabiiy-ilmiy yondashuvlar integratsiyasining ahamiyatini ko'rsatadi. Olima V. Karimova "...yetuk kadr bo'lish uchun shaxs nafaqat o'z iqtidori, bilimi va saviyasini oshirishi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimiga tayyor bo'lmog'i, ijtimoiy faoliyatni boshqarishning ilmiy qonuniyat va qoidalarini mukammal egallamog'i zarur", – deya ta'kidlaydi.

N. Toshpo'latova o'z tadqiqot ishida "ilmiy dunyoqarash" tushunchasining nazariy va metodologik jihatlariga to'xtalib, ilmiy dunyoqarashning tarkib topishi talabalarning sog'lom turmush tarzini tanlashlariga imkon berishini ta'kidlaydi. Talabalar o'qituvchilar bilan hamkorlik jarayonida o'z ilmiy dunyoqarashlarini namoyon qiladilar. Ilmiy dunyoqarash ularning hayotiy barqarorligini ta'minlovchi muhim mezon sifatida xizmat qiladi. U tasodifan vujudga kelmaydi, balki ma'lum bilimlar va hayotiy tajribalarni o'zlashtirish natijasida shakllanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda oliy pedagogik ta'lim muassasalarida fikrlash dizayni (Design Thinking) metodining tatbiq etilishi, uning kontseptual asoslari va amaliy imkoniyatlarini o'rganish maqsad qilingan. Shu bois tadqiqotda ko'p komponentli metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyalar asosida ta'lim va innovatsion pedagogik texnologiyalar nazariyasi doirasida olib borildi. Fikrlash dizayni metodining asosiy g'oyalari, xususan inson markazidagi yondashuv, muammoni chuqur tahlil qilish, empatiya, prototiplash va sinov bosqichlari asos qilib olindi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-pedagogik usullar qo'llanildi:

- teoretik tahlil – fikrlash dizayni metodining nazariy asoslari, xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlar hamda ilg'or tajribalar o'rganildi;
- tizimli yondashuv – pedagogik jarayonlardagi o'zaro bog'liqlik va strukturaviy elementlar aniqlab chiqildi;
- empirik usullar: so'rovnoma va intervyu – oliy ta'limdagi o'qituvchilar va talabalar fikrlari asosida ehtiyojlar aniqlandi;
- pedagogik kuzatuv – dars jarayonlarida fikrlash dizayni elementlarining mavjudligi kuzatildi;
- eksperiment – kichik guruhlar bilan fikrlash dizayni asosidagi mashg'ulotlar o'tkazilib, natijalar tahlil qilindi.

Tadqiqotning obyekti pedagogik oliy ta'lim tizimidagi ta'lim jarayoni, predmeti esa fikrlash dizayni metodini ta'limga tatbiq etishning kontseptual yondashuvlari va metodik imkoniyatlaridan iborat. Tadqiqotda O'zbekistonning bir nechta pedagogik oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan bakalavr bosqichidagi talabalar hamda ushbu yo'nalishda dars berayotgan o'qituvchilar ishtirok etdi, jami ishtirokchilar soni – 554 nafarni tashkil etdi. Yig'ilgan ma'lumotlar sifat jihatdan (qualitative) va miqdor jihatdan (quantitative) tahlil qilindi. So'rovnoma natijalari SPSS dasturiy vositasi yordamida statistik jihatdan qayta ishlanib, grafik va jadval ko'rinishida aks ettirildi, intervyulardan olingan ma'lumotlar esa kontent-tahlil usuli orqali umumlashtirildi.

1-jadval: Kontent-tahlil usuli

№	Tajriba-sinov obyektlari	Yoʻnalishlar	Talabalar soni	Tajriba-sinov guruhlari	
				Tajriba guruhlarida	Nazorat guruhlarida
1	Andijon davlat pedagogika instituti	Pedagogika va psixologiya	61	30	31
		Pedagogika	59	29	30
		Boshlangʻich taʼlim	61	32	29
Jami			181	91	90
2	Namangan davlat pedagogika instituti	Pedagogika va psixologiya	62	30	32
		Pedagogika	61	31	30
		Boshlangʻich taʼlim	64	33	31
Jami			187	94	93



3	Qo'qon davlat pedagogika instituti	Pedagogika va psixologiya	61	31	30
		Pedagogika	63	30	33
		Boshlang'ich ta'lim	62	33	29
Jami			186	94	92
Hammasi			554	279	275

Tadqiqot quyidagi olimlar asarlari va konsepsiyalariga tayandi: T. Braun – Design Thinking asoschilaridan biri; N.V. Bystrova, S.A. Zinov'yeva – muammoli ta'lim va innovatsion yondashuvlar; D. Kellei – ijodkorlik va ta'limda dizayn tafakkuri; O'zbekiston Respublikasi ta'lim strategik hujjatlari va davlat dasturlari.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari so'nggida talabalarning tajriba guruhidagi statistik ko'rsatkichlari nazorat guruhidagi statistik ko'rsatkichlardan yuqori ekanini ko'rish mumkin. Fikrlash dizayni metodi vositasida talabalarning ilmiy tafakkurini rivojlantirish texnologiyasi bo'yicha tajriba-sinov ishlari yakunida statistik ko'rsatkichlar oliy o'quv yurtlari kesimida taqqoslandi.

2- jadval: **Tajriba-sinov ishlari samaradorlik darajasining yakuniy solishtirma jadvali**

Tajriba guruhi	Tadqiqot obyektlari	Yuqori	O'rta	Quyi	Jami
	Andijon davlat pedagogika instituti	44	31	16	91
	Namangan davlat pedagogika instituti	46	33	15	94
	Qo'qon davlat universiteti	47	31	16	94
	Jami	137	95	47	279
Nazorat guruhi	Tadqiqot obyektlari	Yuqori	O'rta	Quyi	Jami
	Andijon davlat pedagogika instituti	26	31	33	90
	Namangan davlat pedagogika instituti	24	34	35	93
	Qo'qon davlat universiteti	27	31	34	92
	Jami	77	96	102	275

3-jadval: **Tajriba-sinov ishlari samaradorlik darajasining qiyosiy tahlili (son va foizlarda)**

Guruhlar	Talabalar soni	O'zlashtirish natijalari (% da)		
		yuqori	o'rta	quyi
Tajriba guruhi	279	137	95	47
		49	34	17
Nazorat guruhi	275	77	96	102
		28	35	37

Tajriba-sinov natijalari tahliliga ko'ra, tadqiqot jarayoniga jalb etilgan tajriba guruhidagi talabalarda nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan bilim, ko'nikma va malakalar samarali shakllanganligi aniqlandi. Bu holatni obyektiv baholash uchun statistik tahlil amalga oshirildi, aniqlangan xulosagina tajriba-sinov ishlarining ilmiy, pedagogik, texnologik va metodik jihatdan to'g'ri va samarali olib borilganini tasdiqlaydi. Ta'kidlovchi tajriba-sinov davrida ham statistik tahlilni amalga oshirish uchun Styudent va Pirson metodlari tanlandi. Mazkur metod ikki guruhda qayd etilgan ko'rsatkichlarni aniqlash va obyektiv baholash imkonini beradi. Matematik-statistik metodning mohiyatiga ko'ra dastlabki bosqichda tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan statistik ko'rsatkichlar tanlanmalar sifatida belgilandi hamda baho ko'rsatkichlari bo'yicha variatsion qatorlar hosil qilindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ilmiy tafakkur talabalarning mustaqil izlanish va ilmiy-tadqiqot faoliyatida muhim kognitiv vosita hisoblanadi. Ilmiy tafakkurning shakllanishida analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi operatsiyalar asosiy rol o'ynaydi. Ilmiy tafakkur faqat nazariy bilim emas, balki amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bo'lib, muammoni aniqlash, gipoteza ilgari surish, tanqidiy tahlil qilish va asoslangan xulosaga kelish faoliyatlari uchun "aqliy mexanizm" vazifasini bajaradi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari



talabalarining ilmiy tafakkurini rivojlantirish ularda zamonaviy bilimlarni egallash, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga moslashish va kasbiy faoliyatga tayyorgarlikda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Fikrlash dizayni metodining nazariy tahlili uning asosida yotgan empatiya, ideatsiya, prototiplash, testlash kabi bosqichlar pedagogik faoliyatga samarali integratsiya qilinishi mumkinligini ko'rsatadi. Fikrlash dizayni talabani ijodiy va tanqidiy fikrlashini rag'batlantiruvchi uslub sifatida talabani faqat bilim egallovchi emas, balki faol muammo yechuvchi subyekt sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, fikrlash dizayni metodi orqali talabalarda ijtimoiy hamkorlik, analitik yondashuv va ijodiy intuitsiyaning uyg'unlashuvi ta'minlanishi mumkinligi asoslab o'tildi. Fikrlash dizayni metodining har bir bosqichi nazariy, metodologik va psixologik jihatlari hamda uni oliy pedagogik ta'limga tatbiq etish imkoniyatlari bilan asoslab berildi. Pedagogik ta'limda mavjud an'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, muammoga asoslangan, kreativ va reflektiv o'qitish modellari orqali talaba tafakkurini rivojlantirish mexanizmi tavsiya etildi. Bu mexanizm fanlararo integratsiyaga tayanadi va o'quv jarayonida talabani fikrlash subyekti sifatida ko'rishga asoslanadi. Natijada talabalar "pedagogik mahsulot" shakllantira oladi, bunda fikrlash dizayni metodi nazariy bilimlar, real muammolar va pedagogik amaliyot bilan integratsiyalashuvini ta'minlaydi.

Tadqiqot ishida "Talabalarining ilmiy tafakkurini fikrlash dizayni metodi vositasida rivojlantirish" modeli takomillashtirildi. Modelning asosiy afzalligi – uning bosqichma-bosqich o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarini – talaba, o'qituvchi, muammo, vazifa va natijani yagona tizimga birlashtirishidir. Ushbu modelda talabalarda ilmiy tafakkur muammoga asoslangan, guruhli, reflektiv va eksperimentga asoslangan yondashuv sifatida alohida ta'kidlab o'tildi. Modelning tatbiq etilishi talabalarining ilmiy bilimi, savol qo'yish ko'nikmasi, gipoteza yaratish, empirik tekshiruv, natijani tahlil qilish va baholash kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bu model zamonaviy ta'lim talablari asosida talabani faol subyekt sifatida shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi „Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida“gi PQ-128-son qarori // <https://lex.uz/docs/-6438903>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-apreldagi "Ilmiy va innovatsion faoliyat bilan shug'ullanib kelayotgan iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 222-son qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-5377538>
3. Sharapov Sh. Ilmiy maktablar – qadriyatlar uzviyligini ifodalovchi model sifatida // <https://edujournal.uz/1068/>
4. Lehrer R., Schauble L. The development of scientific thinking. Handbook of child psychology and developmental science 2.7, 2015. – p. 671-714.
5. Mamaraïmova R. U. Tafakkur bilish jarayoni sifatida. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры 2.5 (2022): 126-128.
6. Закирова А.Ф. Магистерская диссертация как научно-педагогическое исследование: учеб. пособие / А. Ф. Закирова, И. В. Манжслей. – Тюмень: Изд-во Тюменского государственного университета, 2013. – 128 с.
7. Али-Заде А. А. Философское и научное мышление (Аналитический обзор). Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 8, Науковедение: Реферативный журнал 1, 2022. – С. 28-59.
8. Гоголева И. В. Междисциплинарная интеграция в учебной деятельности студентов вуза в учебном процессе. Глобальный научный потенциал 11, 2014. – С. 44.
9. Mamaraïmova R. U. Tafakkur bilish jarayoni sifatida. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры 2.5 (2022): 126-128.
10. Choriyev A. Inson falsafasi. Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent, 2007. – B. 45 (407).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.